

REFLEKSIYA ORQALI PEDAGOGIK FAOLIYATDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

*Sodiqova Shaxnoza Ulug‘bek qizi
Andijon shahar 26-DMTM metodisti
shahoza.sadikova92@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida refleksiya va o‘z-o‘zini baholashning o‘rni tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatda reflektiv yondashuvdan foydalanish orqali o‘z-o‘zini tahlil qilish, didaktik yondashuvlarni takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarda reflektiv madaniyatni shakllantirish orqali ularning mustaqil va ongli faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Eksperimental metodlar asosida olib borilgan ishlar natijasida refleksiyaning kasbiy o‘sishga ijobiy ta’siri amaliy jihatdan isbotlangan.

Kalit so‘zlar. refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik faoliyat, reflektiv yondashuv, kasbiy rivojlanish, metodik yondashuv, ta’lim sifati, reflektiv madaniyat.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash bugungi kunda ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi. Pedagogik faoliyatda samaradorlikka erishish, o‘z ustida ishlash, kasbiy kamchilik va yutuqlarni anglash, ta’lim jarayoniga tanqidiy yondashish ko‘nikmalari aynan refleksiya orqali shakllanadi. O‘z-o‘zini baholash esa refleksiya jarayonining ichki bosqichlaridan biri bo‘lib, pedagogga o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ta’limiy yondashuvni yangilash imkonini beradi. Bu ikki tushuncha – refleksiya va o‘z-o‘zini baholash – nafaqat o‘qituvchining ichki o‘sishini, balki o‘quvchilarga ta’sir qilish salohiyatini oshirishda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – refleksiya orqali o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, bu orqali pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni asoslab berishdan iborat. Shu asosda quyidagi vazifalar belgilanadi: refleksiya va o‘z-o‘zini baholashning nazariy asoslarini aniqlash; ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish; ta’lim amaliyotida refleksiv metodlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash; o‘qituvchilarda refleksiv madaniyatni shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatish.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat va so‘rovnama, refleksiv yozuvlar tahlili, eksperiment usuli. Ushbu metodlar orqali mavzuga ilmiy yondashish va amaliy xulosalar chiqarish imkoni yaratildi.

Refleksiya tushunchasi zamonaviy pedagogikada o‘qituvchining kasbiy o‘sishi va o‘zini anglash jarayonida asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida qaraladi. Falsafiy nuqtayi nazardan refleksiya – inson tafakkuri, ong va faoliyatining o‘ziga qayta yo‘naltirilgan shakli bo‘lib, shaxsning o‘zini tanishi, tahlil qilishi va baholashi jarayonini anglatadi. Psixologiyada esa refleksiya shaxsning o‘z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini idrok etish, ular ustida fikr yuritish qobiliyatidir. Pedagogikada esa refleksiya o‘qituvchining o‘z ta’limiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, o‘zining kasbiy harakatlari va ularning natijalariga baho berishidir.

Refleksianing bir nechta shakllari mavjud bo‘lib, ular pedagogning faoliyatiga har xil yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiy refleksiya – o‘qituvchining o‘z hissiyoti, qadriyatlari va motivatsiyasini tahlil etishidir. Kasbiy refleksiya – o‘z faoliyat uslubi, o‘qitish texnologiyalari va metodlariga tanqidiy yondashishdir. Amaliy refleksiya – dars jarayonida yuzaga kelgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, nazariy refleksiya esa ta’lim jarayonining asosiy konseptual jihatlarini tushunishga qaratilgan. Refleksiya pedagogik jarayonda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi: tahliliy, o‘zgartiruvchi, baholovchi va rivojlantiruvchi. U o‘qituvchiga o‘z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, yangicha yondashuvlarni izlash, tajriba orttirish hamda kasbiy o‘sishga erishish imkonini beradi. Shu bois refleksiya zamonaviy o‘qituvchining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Pedagogik faoliyatda o‘z-o‘zini baholash – bu o‘qituvchining o‘z faoliyatiga nisbatan ongli, tanqidiy va tahliliy munosabat bildirish jarayonidir. Ilmiy nuqtayi nazardan u shaxsning ichki reflektiv faolligiga asoslangan bo‘lib, kasbiy o‘sish, o‘zini anglash va mustaqil rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. O‘z-o‘zini baholash mazmunan o‘z harakatlarini baholash, maqsadga muvofiqligini tekshirish, natjalarni tahlil qilish va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Bu jarayon og‘zaki, yozma, raqamli yoki reflektiv kundaliklar shaklida amalga oshirilishi mumkin. O‘z-o‘zini baholashning pedagogik samaradorlikka ta’siri bevosita o‘qituvchining o‘z faoliyatiga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi. U orqali o‘qituvchi nafaqat o‘zining didaktik yondashuvini, balki o‘quvchilarga ta’sirini, dars samaradorligini ham chuqurroq anglaydi. Bu esa kasbiy refleksiyani faollashtiradi, o‘z ustida ishslashga turki bo‘ladi va sifatli ta’lim berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘z-o‘zini baholash va tashqi baholash bir-birini to‘ldiruvchi, biroq farqli jarayonlardir. Tashqi baholash – bu boshqa shaxslar, masalan, rahbarlar, hamkasblar yoki ekspertlar tomonidan beriladigan ob’ektiv fikr bo‘lsa, o‘z-o‘zini baholash – sub’ektiv, ichki kuzatuvga asoslangan jarayondir. Tashqi baholash mezonlarga tayansa, o‘z-o‘zini baholash shaxsiy me’yor va qadriyatlarga asoslanadi. Shu bois har ikki baholash shakli uyg‘un qo‘llanganda o‘qituvchining kasbiy rivoji yanada mukammal yo‘lga qo‘yiladi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida o‘zaro ta’sir qiluvchi jarayonlardir. Refleksiya o‘z-o‘zini baholashning ichki mexanizmi sifatida faoliyat natijalarini tahlil qilish, ularni anglash va o‘zgarishlar kiritish uchun zarur bo‘lgan fikrlashni shakllantiradi. Refleksiya vositasida o‘qituvchi o‘z faoliyatining sabab-natija bog‘liqliklarini tushunadi, bu esa o‘z-o‘zini baholash jarayonini faollashtirib, undan amaliy natijalar olishga xizmat qiladi. Reflektiv yondashuv shaxsning o‘z harakatlari va qarorlarini chuqur tahlil qilish, ularning asosini anglash va yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, didaktik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishda refleksiya orqali o‘qituvchi o‘zining pedagogik qarorlarini qayta ko‘rib chiqadi va ularni takomillashtirishga intiladi. Bu jarayon nafaqat baholashni, balki yangicha pedagogik fikr yuritishni ham rag‘batlantiradi.

Ustozlarda reflektiv madaniyatni shakllantirish uchun metodik asoslar zarur bo‘lib, ular ichida pedagogik portfoliolar yuritish, kasbiy kundaliklar yozish, darsdan keyingi tahliliy suhbatlar, kuzatuvalar va o‘zaro fikr almashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Reflektiv treninglar va amaliy mashg‘ulotlar esa o‘qituvchilarda o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini mustahkamlab, kasbiy o‘sishga zamin yaratadi. Shu orqali pedagogik faoliyatda ongli, asosli va samarali o‘zgarishlar amalga oshiriladi.

Refleksiya orqali o‘z-o‘zini baholashni rivojlanirish zamonaviy pedagogik amaliyotda o‘qituvchining kasbiy salohiyatini oshirishda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu borada refleksiv texnologiyalar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, kundalik yuritish orqali o‘qituvchi har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini yozma tarzda tahlil qiladi, bu esa vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlarni ko‘rishga va ularni baholashga imkon yaratadi. Pedagogik portfoliolar esa o‘qituvchining yutuqlari, muammolari va tajribalarini tizimli tarzda jamlashga yordam beradi. Shuningdek, “o‘z-o‘ziga savol berish” usuli orqali pedagog o‘z qarorlarini tanqidiy baholaydi, video-tahlil esa darslarni tashqi kuzatuv orqali ob’ektiv tahlil qilish imkonini beradi.

Refleksiv faoliyatni faollashtirishda interaktiv metodlarning o‘rni beqiyosdir. Treninglar, davra suhbatlari va “pedagogik ko‘zgu” usuli orqali o‘qituvchilar bir-birining tajribasini tahlil qilib, o‘z faoliyatini solishtirish va baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Ushbu metodlar ijtimoiy o‘zaro ta’sir va fikr almashishga asoslangan bo‘lib, reflektiv fikrlashni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlanirishda kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan muhit, metodik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tashkilotida ochiq muloqot va tahliliy madaniyatning mavjudligi asosiy omillar hisoblanadi. Shuningdek, doimiy o‘zini baholashga undovchi tashkiliy mexanizmlarning joriy etilishi refleksiya madaniyatini mustahkamlashga yordam beradi. Shu tariqa, refleksiya orqali o‘z-o‘zini baholash samarador tarzda rivojlanadi va bu pedagogik faoliyatning sifatini oshiradi.

Tadqiqot doirasida o‘qituvchilarning refleksiya asosida o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirishga qaratilgan tajribaviy ishlar olib borildi. Eksperiment ikki bosqichda – diagnostik va natijaviy bosqichlarda amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda o‘qituvchilarning reflektiv kompetensiyasi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari savolnomalar, suhbatlar hamda dars tahlillari orqali o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, ko‘pchilik pedagoglar o‘z faoliyatini yuzaki tahlil qilishi, refleksiv yondashuvdan kam foydalanishi aniqlandi.

Eksperiment davomida o‘qituvchilarga refleksiv kundaliklar yuritish, video-tahlil asosida o‘z darslarini tahlil qilish, o‘zaro dars kuzatuvlari va “pedagogik ko‘zgu” metodikasi joriy qilindi. Ushbu faoliyatlar natijasida pedagoglar o‘z faoliyatini chuqurroq tahlil qila boshladi, mustaqil baholash va fikr yuritish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, qatnashgan o‘qituvchilarning 75 foizi darsni rejalahshtirishda refleksiv elementlardan foydalanganini va o‘z ustida ishlashga nisbatan motivatsiyasi oshganini bildirdi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, refleksiya asosida olib borilgan metodik yondashuv o‘qituvchilarda kasbiy o‘sish ehtiyojini kuchaytiradi, pedagogik faoliyatga tanqidiy qarashni rivojlantiradi hamda o‘z-o‘zini baholash orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa reflektiv yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismlaridan bo‘lib, ular o‘qituvchining kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, ta’lim sifatini oshiradi hamda mustaqil va ongli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Refleksiya orqali o‘z-o‘zini baholash jarayoni o‘qituvchiga o‘z tajribasini tahlil qilish, pedagogik qarorlarini asoslash, metodik yondashuvarini takomillashtirish imkonini beradi. Bu jarayon faqat nazariy emas, balki amaliy asosda yo‘lga qo‘yilganda ko‘zga ko‘rinarli ijobjiy natijalar beradi. O‘qituvchilarga refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: kasbiy kundalik yuritish va portfoliolarni tizimli tarzda shakllantirish; darslardan keyingi o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun maxsus refleksiv savollar majmuasini ishlab chiqish; o‘zaro kuzatuvlar va fikr almashuvlar tashkil etish; treninglar va metodik seminarlar orqali reflektiv yondashuvni amaliyotga tatbiq etish.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun o‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini yosh guruhlar, fan yo‘nalishlari yoki tajriba darajalari bo‘yicha tahlil qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida refleksiyani rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlar sifatida qaralishi mumkin. Bu yo‘nalishlar zamonaviy ta’limda reflektiv pedagogikaning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.** Kodirov O. Reflective Teaching Perspectives of EL Teaching in Uzbek Schools // Excellencia: International Multidisciplinary Journal of Education. – 2024. – T. 1. – № 1. – B. 22-28.
- 2.** Jonibekova M.U. The Nature, Characteristics and Importance of Reflective Practice in Foreign Language Learning and Teaching // Current Research Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 5. – № 10. – B. 126-132.
- 3.** Maxmudova M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish // O'zbekiston pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – № 3. – B. 47-54.
- 4.** Masharipova F. Fostering Reflective Practice: A Pathway to Effective Teaching and Professional Growth // English Language and Literature Journal. – 2024. – T. 3. – № 1. – B. 9-17.
- 5.** Inoyatova G. Refleksiya – pedagogning kasbiy o'sish omili sifatida // Ta'lim va Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali. – 2023. – T. 4. – № 2. – B. 33-39.
- 6.** Yo'ldosheva M. Refleksiv madaniyatni shakllantirishning psixologik asoslari // Psixologiya va Pedagogika. – 2022. – T. 6. – № 1. – B. 14-18.
- 7.** Tursunova D. O'qituvchilarda reflektiv kompetensiyani rivojlantirish metodikasi // Pedagogik Izlanishlar. – 2023. – T. 7. – № 3. – B. 58-64.
- 8.** Abdullayeva N. Kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini baholashning roli // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ilmiy axborotnomasi. – 2023. – T. 5. – № 2. – B. 25-30.